

MAMLAKAT IMIDJINI OSHIRISHDA OAV YETAKCHI VOSITA SIFATIDA

Abdivohidova Munisa O‘zDJTU talabasi

***Annotasiya.** Ushbu maqolada bugungi kunda mamlakat imidjini oshirishda OAVning o‘rni xususida so‘z boradi. Shuningdek, mazkur maqola mavzusiga doir ilmiy va rasmiy adabiyotlar tahlil qilinib mavjud muammo yuzasidan taklif va tavsiyalar keltiriladi.*

***Kalit so‘zlar:** globallashuv, imidj, OAV, internet, jamoatchilik fikri.*

***Abstract.** This article talks about the role of mass media in improving the image of the country today. Also, the scientific and official literature on the topic of this article is analyzed and suggestions and recommendations are given regarding the existing problem.*

***Key words:** globalization, image, mass media, internet, public opinion.*

KIRISH

Axborot bu - insonni, uning harakatlarini, jamoat tashkilotlari faoliyatini, davlat hokimiyati organlarini, texnik tizimlarni boshqarish vositasidir. Axborot muloqoti shaxsni tarbiyalash, ta’lim berish va shakllantirishning asosini hosil qiladi. Axborot insonga ijtimoiy va texnik me’yorlarning mazmunini yetkazish, uni ushbu me’yorlarga amal qilmaslikning bo‘lg‘usi salbiy oqibatlari haqida ogohlantirishning yagona vositasi hisoblanadi. Jahonda sodir bo‘layotgan dolzarb mavzular, hodisalar, voqealarni eng birinchi OAV orqali kuzatamiz. Bu borada auditoriyaga tezkorlik, xolislik, aniqlik kabi tamoyillar birlamchi ahamiyatga ega. Hozirgi kunda axborot olish va axborot tarqatish maydoni sifatida internetning hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Global tarmoq, globallashuv axborot va ommaviy axborot vositalari tushunchasini ham tubdan o‘zgartirib yubordi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

XXI asr axborotning nazariy va amaliy ijodi eng cho‘qqisiga yetgan asr. Shuning uchun ham bugungi kunda XXI asrni axborot asri deb ta’kidlashmoqda. Jahon tajribasidan ma’lumki, davlat axborot infrastrukturasi rivojlanishi jamiyat va davlatning hamma jabhalarini, jumladan, odamlarning dunyoqarashini va ularning mehnat, ijtimoiy va siyosiy hayotda ishtirok etishi shartlarini o‘zgartirib, jamiyat rivojlanishini tezlashtiradi.

Har xil axborot texnologiyalari, avtomatlashtirilgan sistemalar va ma'lumotlar bazasi davlat strukturalarini, iqtisodiyotni va mamlakat mudofaasini boshqarishning ajralmas qismi bo'lib qoladi. Bugungi kunda yanada rivojlanib, o'zining yangi yo'nalishlariga ega bo'lib borayotgan internet jurnalistikasi keng qamrovliligi va auditoriyasining chegara bilmasligi bilan ajralib turadi.

Zamonaviy OAV turi hisoblangan internet jurnalistikasi OAV taraqqiyoti, uning vazifalarining kengayishi, ishlab chiqarish va texnika sohasidagi keskin o'zgarishlar, jurnalistika va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning murakkablashuvi jurnalistlar oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Bir vaqtning o'zida yangiliklar yoza oladigan, intervyu olish, rasm va videoga tushirish mahoratini egallay olgan, internet uchun materiallar tayyorlay oladigan universal jurnalistlarni yetishtirish hozirgi kunda muhim.

Shu bilan birga ushbu an'anaviy jurnalistik malakaga endilikda yana texnik xarakterdagi matematik va muhandislik kabi sohalar bo'yicha ham malaka hamda ko'nikmalarni hosil qilishga to'g'ri kelayapti. Bu, ayniqsa, internetdan foydalanuvchi jurnalistlar uchun juda zarurdir. Shunday qilib, turli sohalarning konvergentsiyasi jurnalistlardan ham universallashtirish, ham ixtisoslashuvni talab etadi.

Shu bilan birga universallashtirish, to'g'rirog'i, transprofessionallashtirish, avvalambor, aynan bir sohani to'liq o'zlashtirib olishni taqozo etadi. Universal jurnalist bu muayyan bir sohani to'liq egallagan mutaxassis ham demakdir. Aynan mana shu narsa bir-biriga yaqin bo'lgan ixtisosliklarni tezlikda o'zlashtirib olish imkonini beradi. Yuzaki yondashuv, barcha narsani shunchaki bajarish professional vazifani amalga oshirish uchun yetarli emas.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Medialarning birlashuvi, ya'ni konvergentsiya sharoitida jurnalist ijodi o'zining ko'p qirraligi, axborotni qisqa, faktlarga asoslangan holda, zamonaviy talablarga mos ravishda tezkor uzatishi bilan ajralib turadi. Raqamli texnologiyalar konvergentsiyasi sharoitida media va axborot savodxonligiga ega bo'lgan jurnalistlarning ijodiy faoliyati sifat bosqichiga ko'tariladi.

Shuningdek, universallashtirish jarayoni jurnalistlarni quyidagilarni bajara olishlariga sharoit yaratdi:

- dolzarb, ijtimoiy axborotni yaratish;
- mavjud ijtimoiy jarayonlarni tankidiy jihatdan tahlil eta olish;
- medianing ijtimoiy jarayonlarga ta'sir etish ko'lami va darajasini, unda axborotni namoyish etish shakllarini tushunish;
- ularning o'zlarining faol fuqarolik pozitsiyasini namoyish etishda undan foydalanish va ijodiy jihatdan tushunish;

- har taraflama puxta va mustaqil qarorlar qabul qilish;
- atrof-muhit haqida yangi axborot olish;
- umumiylik hissiyotini shakllantirishga ko'maklashish;
- jamiyat rivojining dolzarb masalalari bo'yicha ommaviy debatlar va dialoglarni ta'minlash va qo'llab-qo'vvatlash;
- hayoti davomida uzluksiz ta'limni qo'llab-quvvatlash;
- o'z xavfsizligini ta'minlagan va ijtimoiy mas'uliyatni his qilgan holda mediadan foydalanish;
- fuqarolik jamiyati va global axborot tarmog'ini shakllanishi va rivojini qo'llabquvvatlash[1].

Yuqorida sanab o'tilganlarning barchasi kun.uz saytida faoliyat yuritayotgan jurnalistlarda namoyon bo'lmoqda. Saytning "O'zbekiston yangiliklari", "Jahon yangiliklari", "Iqtisodiyot yangiliklari", "Jamiyat yangiliklari", "Fan va texnika yangiliklari", "Sport yangiliklari" ruknlari ostida berilayotgan materiallar respublikamiz va xorijda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga o'zgacha, qolipdan chiqqan holda yondoshuv natijasida juda ham o'qishlidir. Internet tizimida faoliyat yurituvchi jurnalist radio, televideniye, matbuotda faoliyat yurituvchi jurnalistdan albatta farq qiladi. Internet jurnalisti yuqorida tilga olingan jurnalistlarning barcha xususiyatlarini o'zida mujassam etgan holda o'z faoliyatini bajarishi lozim. Internet jurnalistining mahorati yangiliklarni baholay olishida bilinadi. Bu jurnalistdan talab qilinadigan asosiy narsalardan biri hisoblanadi. Yangiliklarni tanlash va ularni baholash internet jurnalisti kundalik faoliyatidagi eng qiyin yumushlardan biri hisoblanadi. Bu jurnalistning tajribasini ham ko'rsatib beradi.

Masalan, "kun.uz" sayti jurnalistlari yangiliklarni baholashda mazkur saytning axborot siyosatiga, voqeaning ijtimoiy ahamiyati va dolzarbligiga e'tibor berishadi. Saytda berilgan "Nazorat qiluvchi idoralar mustaqil bo'lishi kerak. Davlat boshqaruvidagi muammolardan biri haqida" sarlavhasi ostida chop etilgan xabar 2 soat ichida 13 804 marta o'qilganini kuzatish mumkin, bu ham albatta auditoriyaning qiziquvchanligidan dalolat beradi. "Musulmonlar idorasining yo'l harakati qoidalariga rioya qilishga doir fatvosi e'lon qilindi" kabi xabarlar ham foydalanuvchilar diqqat-e'tiborini tortib kelmoqda. Internet jurnalistining mahorat qirralaridan yana biri uning tezkorligidir.

Agarda 2-3 yil oldin respublikamizda faoliyat yuritayotgan saytlarning salkam 50 foizi muntazam yangilanmagan bo'lsa, bugungi kunda sifatli axborotga bo'lgan talabning oshishi, saytlarning ko'payishi va axborot bozori uchun kurash OAV maqomiga ega saytlarning har kuni yangilanib turishini taqozo etmoqda. Buni

“kun.uz”, “daryo.uz”, “gazeta.uz”, “qalampir.uz”, “xalq so‘zi” saytlari misolida ko‘rishimiz mumkin.

Ularda berilayotgan bugungi kunning dolzarb muammolariga bag‘ishlangan materiallar foydalanuvchilar xabardorligining oshishiga olib kelmoqda. Agarda saytlar kontenti bilan tanishish dinamikasini kuzatadigan bo‘lsak, www.uz portalining xabariga ko‘ra, bir kunda daryo.uz saytiga 422 496 mingga yaqin foydalanuvchilar kirsa, reytingning uchinchi o‘rnini egallagan “qalampir.uz” saytiga 106 086 mingga yaqin foydalanuvchi kirib, uning mazmuni bilan tanishar ekan. Bu ko‘rsatkichlar ham bugungi kunda insonlarning axborotga qanchalik kuchli ehtiyoji borligini ham ko‘rsatib bermoqda.

Aslida jurnalistlar, o‘z kasbiy vazifalariga muvofiq, axborot vakuumida yashashlari mumkin emas. Bloggerlardan olingan ma‘lumotlar jurnalistlar tomonidan rasman e‘lon qilinmasa-da, baribir ularni kundalik faoliyatlarida nazardan qochirmaydilar. Zero, an‘anaviy OAVning axborotni yashirish odati ularga bo‘lgan ishonchga putur yetkazadi. Natijada odamlar bloglarga o‘xshagan axborot manbalariga murojaat etishga majbur bo‘ladilar. Bunda auditoriyaning professional jurnalistlarga bo‘lgan ishonchi pasayadi, bloggerlar mavqei esa oshib boraveradi.

Natijada an‘anaviy jurnalistikaning reytingi biroz tushib ketishi mumkin. Internet jurnalistining mahorati avvalo jurnalistika konvergentsiyasi jarayonida o‘quvchi uchun qiziq bo‘lgan faktlarni zudlik bilan har tomonlama, ya‘ni matn, video va audio jamlanmasi ko‘rinishida yetkazishdir. Bugungi kunga kelib saytlarda (“kun.uz”, “daryo.uz”, “gazeta.uz”, “human.uz”) muhbir bilan birgalikda fotograf va operator faoliyatini kuzatishimiz mumkin, bu albatta ularda faoliyat yuritayotgan jurnalistlar matn va surat bilan chegaralanib qolmay, axborotni video va audio shaklida ham aholiga yetkazib berishayotganliklarini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligi, O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi, Elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, Jurnalistlarni qayta tayyorlash markazi va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyat ko‘rsatayotgani axborot sohasini rivojlantirish uchun zarur barcha sharoitlar yaratilganidan yana bir dalolatdir.

Soha xodimlarini rag‘batlantirish, yangidan-yangi ijodiy parvozlar sari da‘vat etish, kasb malakasi va mahoratini yuksaltirish, zamon talabiga uyg‘un mutaxassis kadrlar tayyorlash borasidagi ishlar ko‘lami tobora kengaymoqda. Bu jihatlar jurnalistikamiz rivojiga xizmat qilayotgan turli ko‘rik-tanlovlar, ijodiy bellashuvlar, grant-loyihalar, ijtimoiy dasturlarda ham o‘z ifodasini topmoqda. Bu borada jurnalistlar o‘rtasida o‘tkazib kelinayotgan “Oltin qalam” Milliy mukofoti, “Yilning

eng faol jurnalisti”, «Eng ulug‘, eng aziz» singari tanlovlar, ”Jurnalistlar bahori”, “Ijtimoiy media maxsulotlar milliy festivali”, “Ozod yurt to‘lqinlari” kabi mediafestivallar ijod ahlining jamiyatdagi faolligini oshirish, kasbiy mahoratini yuksaltirish, iqtidor sohiblarini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

OAV uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash milliy tizimining takomillashtirilishiga ham katta e‘tibor berilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Milliy universitetining jurnalistika, O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining xalqaro jurnalistika fakultetlarida, shuningdek, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikasiyalar universitetida soha uchun kadrlar tayyorlanmoqda va hozirgi tez o‘zgarayotgan globallashuv davrida jurnalistikaning o‘ziga xos xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, bugungi holati va istiqboli bilan bog‘liq masalalarni chuqur o‘rganish, bu borada olib borilayotgan ilmiy- tadqiqot va ijodiy ishlar samaradorligini ta‘minlash hamda ushbu soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sifatini tubdan oshirish yo‘lida ish olib borilmoqda.

Milliy ommaviy axborot vositalarini izchil rivojlantirish, sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, jahon andozalari talablari darajasida faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur sharoitlarni yaratish, ijodkorlar mehnatini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish borasida doimiy e‘tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatilib kelinmoqda. “Bugun biz yashayotgan shiddatli XXI asrda zamonning o‘zi hayotimizga keskin sur‘atlar bilan kirib kelayotgan globallashuv jarayonlari O‘zbekiston ommaviy axborot vositalari va jurnalistlar ahli oldiga bizning ezgu maqsadimiz bo‘lgan demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyat barpo etish yo‘lida g‘oyat muhim, dolzarb vazifa va talablarni qo‘ymoqda.

Buning uchun ommaviy axborot vositalari vakillaridan nafaqat professional bilim va malaka, hayotiy tajriba, o‘z so‘zi uchun ma‘sulyati hissi, ayni vaqtda yuksak grajdanlik pozitsiyasi, ma‘naviy jasorat ham talab etiladi”, — degan edi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z ma‘ruzalarida. Davlat rahbarining biz jurnalistlarga yuksak ishonchi, har tomonlama qo‘llab quvvatlanishi, sharaflilik kasb egalari oldiga yuksak va sharaflilik vazifalarni yuklaydi. “Hamma davrlarda ham jurnalistlarga oson bo‘lmagan. Bu kasbni bilib turib tanlaganmiz. Jurnalistika kurashishni talab qiladigan soha. Matbuot va ommaviy axborot vositalarini to‘rtinchi hokimiyat darajasiga chiqishini istaymiz. Bugun biz shu kuchga to‘laqonli ega bo‘lish uchun harakat qilyapmiz.

O‘zbek jurnalistikasining erkinligi, yutuqlari haqida gapirilganda ko‘pchilik avvalgi davr bilan qiyoslashga o‘rganib qoldi. Bunday solishtirish u qadar to‘g‘ri emas, nazarimda. Chunki jurnalistikamizni avvalgi vaziyati bilan qiyoslagandan ko‘ra,

“Aslida jurnalistika qanday bo‘lishi kerak?” degan savol nuqtai nazar bilan qarashimiz lozim. Sohamizning bugungi natijalari uchun kimgadir rahmat aytishimiz shart emas. O‘zi shunday bo‘lishi, bundan ham yaxshiroq bo‘lishi kerak-da. Hamkasblaringa shuni aytgan bo‘lardimki, oldinga yanayam katta maqsadlar qo‘yib, haqiqiy to‘rtinchi hokimiyat bo‘lishga intilaylik. Bilasizmi, demokratiya ancha rivojlangan davlatlarda matbuot va ommaviy axborot vositalariga nisbatan birinchi hokimiyat sifatida ham qarashadi. Bu jurnalistikaning kuchida ko‘rinadi.

Shuning uchun kuchli mamlakatlarda kuchli jurnalistika barqaror taraqqiyotning asosiy omillaridan biri sifatida o‘zini ko‘rsatgan. O‘zbek jurnalistikasi ham ana shunday maydonga chiqishi kerak. Buning uchun esa eng avvalo, jamiyatning, iqtisodiyotning rivojlanishida shaffoflik muhim. Nima uchun aynan 27- iyun – Matbuot va OAV xodimlari kuni sifatida nishonlanishini bilasiz-ku. Chunki bu kunda ilk milliy nashrimiz “Taraqqiy” chop etila boshlangan. Bu kunni bayram sifatida nishonlar ekanmiz, mustamlakachilik zamonidagi o‘sha og‘ir vaziyatlarda milliy matbuotimizning poydevorini qo‘ygan insonlardan shijoatni, jasoratni o‘rganaylik, ulardan ruh olaylik. Ular millat qayg‘usi bilan yashagan.”

“Rost24.uz” sayti bosh muharriri Anora Sodiqova o‘zining “Hurriyat” gazetasi 2021-yil 27-iyun soniga bergan intervyusida jurnalistika sohasidagi yutuq va kamchiliklar haqida o‘z qarashlarini bayon etgan. Axborot (Informatsiya) termini “information” lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, ma‘lumot berish, tushuntirish ma‘nosini anglatadi [2]. Qadimdan bu tushuncha orqali odamlar o‘rtasida og‘zaki, yozma va boshqa usullar vositasida ma‘lumot almashinish tushunilgan. “Informasiya” tushunchasiga keng, har tomonlama izohni kibernetika beradi.

Uning asoschisi Nobert Viner shunday yozadi: “Informasiya bu tashqi olamdan olingan ma‘lumot mohiyatiga bizning moslashuvimiz va bizning xis-tuyg‘ularimiz moslashuvi jarayoni bilan izohlanadi”[3]. Ikkinchi tomondan “informasiya” tushunchasi “ma‘lumot bilan ta‘minlangan, ya‘ni axborot uzatish va uni ommaviylashtirish” ma‘nosini ham anglatadi. Axborot - inson va jamiyat hayotidagi o‘ziga xos hodisadir. Bir tomondan, axborot bu inson va jamiyatning mavjudlik sharoitlariga moslashuv imkoniyatini ta‘minlovchi, atrofimizdagi dunyo haqidagi bilimlarni yig‘ish vositasi bo‘lib, ular asosida inson va jamiyat o‘z ehtiyojlarini qondirish va manfaatlarini amalga oshirish maqsadlarida to‘g‘ri keladigan harakat yo‘nalishini tanlashadi.

Masalan, “ko‘chada yomg‘ir yog‘yapti” degan axborot sayrga otlangan kishi uchun soyabon olish zarurligi haqida qaror qabul qilishga yordam beradi.

Boshqa tomondan, axborot bu - insonni, uning harakatlarini, jamoat tashkilotlari faoliyatini, davlat hokimiyati organlarini, texnik tizimlarni boshqarish vositasidir.

Axborot mulqoti shaxsni tarbiyalash, ta'lim berish va shakllantirishning asosini hosil qiladi. Axborot insonga ijtimoiy va texnik me'yorlarning mazmunini yetkazish, uni ushbu me'yorlarga amal qilmaslikning bo'lg'usi salbiy oqibatlari haqida ogohlantirishning yagona vositasi hisoblanadi.

Bugungi kun insonlari kundalik hayotini axborot yoki yangiliklarsiz tasavvur eta olmaydi. Zamonaviy media makonda juda katta hajmdagi axborotlarni auditoriya har kuni qabul qilyapti. "Buning uchun ommaviy axborot vositalari vakillaridan nafaqat professional bilim va malaka, hayotiy tajriba, o'z so'zi uchun ma'sulyati hissi, ayni vaqtda yuksak grajdanlik pozitsiyasi, ma'naviy jasorat ham talab etiladi"[4]. Bugun biz yashayotgan shiddatli XXI asrda zamonning o'zi, hayotimizga keskin sur'atlar bilan kirib kelayotgan globallashuv jarayonlari O'zbekiston ommaviy axborot vositalari va jurnalistlar ahli oldiga bizning ezgu maqsadimiz bo'lgan demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyat barpo etish yo'lida go'yat muhim, dolzarb vazifa va talablarni qo'yimoqda"[5].

Darhaqiqat, jahonda sodir bo'layotgan dolzarb mavzular, hodisalar, voqealarni eng birinchi OAV orqali kuzatamiz. Bu borada auditoriyaga tezkorlik, xolislik, aniqlik kabi tamoyillar birlamchi ahamiyatga ega. Hozirgi kunda axborot olish va axborot tarqatish maydoni sifatida internetning hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Global tarmoq, globallashuv axborot va ommaviy axborot vositalari tushunchasini ham tubdan o'zgartirib yubordi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyev quyidagi fikrlarni aytadi: "Internet hayotimizga tobora chuqur kirib borayotganini alohida qayd etish lozim. Hozirgi vaqtda global tarmoqda Uz domenli veb-saytlar, axborot portallari soni 400 dan oshib ketgani, ularning aksariyati xorijiy tillarda faoliyat ko'rsatayotgani, ushbu yo'nalishda yangi ijodiy avlod – Internet jurnalistlari shakllanib borayotgani e'tiborga sazovordir. Haqiqatdan ham internet jurnalistlar faoliyatida yangi shakl va uslublarni joriy etdi.

Bu borada muammoning yana bir jihatini e'tibordan qoldirmaslik kerak eng avvalo, internet aniq va noaniq bo'lgan axborot manbaidir. Ikkinchidan, bu global tarmoqda auditoriya ham axborot iste'molchisi, ham axborot tarqatuvchisi sifatida faoliyat ko'rsatadi. U o'zida juda ko'p manbalar va manzillarni jamlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nozima Muratova, Nargis Qosimova, Gulnoza Alimova, A'zam Dadaxonov, Azizaxon Ilyosxonova, Sitara Xolmatova, Nigina Xakimova: Jurnalistika "Onlayn jurnalistika va mediada yangi trendlar" –T.: O'zbekiston, 2019. 135-b

2. Nesterenko F.P., Irnazarov K.T., Mamatova Y.M. Lug‘at-ma‘lumotnoma: jurnalistika, reklama, pablik rileyshnz. - T., Zarqalam, 2003. 48-b.
3. Принципы международной журналистики и международный обмен информацией. –М., 1999. С.5.
4. <http://xs.uz/uzkr/post/prezident-tabrigi-matbuot-va-ommavij-akhborot-vositalari-khodimlariga>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga tabrigi. “Xalq so‘zi”, 2018 yil 28-iyun